O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING JIZZAX
VILOYATI BOSHQARMASI

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel/Faks: 71-203-11-09, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Safarov Bobir Sabirjanovich
Sana: 12-12-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

225153 - SONLI

Obyekt nomi: 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchasi yuqori qavatlari ko`p qavatli turar joy binosi	
Buyurtmachi:	MODERN TECHNOLOGY COSTRUCTION MCHJ
Bosh loyihachi:	"CREATIVE PROJECTS" MCHJ
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	038583

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. “MODERN TECHNOLOGY COSTRUCTION” MChJ tomonidan 07.09.2024 yilda tasdiqlangan va «CREATIVE PROJECTS» MChJ bilan kelishilgan Loyiha topshirig’i.

1.2. Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 23.09.2024 yilda berilgan 1708-1708401-199754-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. “Jizzax mujassamlashgan ekspeditsiyasi” MChJ tomonidan 2024 yil sentyabr oyida berilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari bo‘yicha bajarilgan xulosasi.

1.4. Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi loyiha-smeta xujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 04.10.2024 yildagi loyiha smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha 152027520-sonli xulosasi.

1.5. Jizzax viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 26.11.2024 yildagi 429-E-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.6. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Jizzax hududiy filialining 07.10.2024 yildagi 25/1010-sonli Texnik sharti.

1.7. “Jizzax suv ta’minoti” MChJ Jizzax shahar filialining 02.10.2024 yildagi 2004-sonli Texnik sharti.

1.8. “MODERN TECHNOLOGY COSTRUCTION” MChJ va «CREATIVE PROJECTS» MChJ o’rtasida 07.09.2024 yildagi 38-sonli loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. “MODERN TECHNOLOGY COSTRUCTION” MChJ ning “Shaffof qurilish” MAT orqali 05.11.2024 yildagi 038583-sonli murojaati.

2.2. Ishchi loyiha tarkibiga ko‘ra ishlab chiqilgan loyiha – smeta hujjatlari elektron tarzda taqdim qilingan.

2.3. Issiqlik texnikasi hisoblari va energotejamkorlik pasporti.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Loyiha bosh rejasi.

Jizzax viloyati Jizzax shahar “A.Navoiy” MFY O‘zbekiston ko‘chasi 77-uy xududida “1-qavati savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchasi yuqori qavatlari ko‘p qavatli turar joy binosi” qurilishi bosh rejasi (GP) bo‘limi Jizzax viloyati Qurilish va uy joy komunal xo‘jaligi boshqarmasi tomonidan berilgan 23.09.2024-yildagi, 1708-1708401-199754-sonli APZ asosida, 1:500 masshtabdagi topografik xaritada, barcha sanitariya talablariga rioya qilgan holda bajarilgan.

Hudud to‘rt tomondan quyidagilar bilan chegaralanadi:

- shimolda - aholi turar-joy binosi bilan;
- sharqda - mahalliy yo‘l bilan;
- janubda - mahalliy yo‘l bilan;
- g‘arbda - ko‘p qavatli turar-joy bilan.

Bosh reja ishchi loyihasida quyidagi bino va inshootlar va ish turlari aks etgan:

Hududda qurilayotgan yangi bino va inshootlar tarkibi:

- Ko‘p qavatli turar-joy binosi,
- Bolalar maydonchasi,
- Avtoturargox,
- Transformator o‘rnatish uchun maydon,
- Maishiy chiqindi tashlash joyi.

Hudud obodonlashtirildi, yo‘llar va piyodalar o‘tish yo‘llari qattiq sirtga ega.

Qurilish maydonining vertikal rejasi binolarni mavjud relefga nisbatan to‘g‘ri joydashtirish, yashil maydonlarni, sug‘orish imkoniyatini, shuningdek, chiqindilarni va yomgir va qor suvlarini hudud yuzasidan olib chiqilishini ta’minlaydi.

Yo‘llar, piyodalar yo‘llari beton va bruschatka qoplamasi bilan ta’minlangan.

Bolalar maydonchasi qum-tuproq qoplamasi bilan ta’minlangan. Maydoncha o‘yin jixozlari joylashtirilgan. Avtoturargox talabga muvofiq joylashtirildi.

Shuningdek hudud ko‘p yillik manzarali daraxtlar va yashil maysalar bilan ko‘kalamzorlashtiriladi.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida hududda quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilgan:

1. Asosiy binoning burchak qismida yong‘inga qarshi shit joylashtirilgan;
2. O‘t o‘chirish mashinalarining barcha binolar yaqiniga borishi uchun qattiq qoplamali yo‘llar bilan ta’minlangan;
3. Qurilayotgan bino yaqinida yong‘inga qarshi suv gidrantlari joylashtirilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari:

- Qurilish hududi – 3420,09 m^2;
- Bino osti maydoni – 1193,52 m^2;
- Yo‘l va yo‘laklar maydoni – 1371,55 m^2;
- Ko‘kalamzorlashtirilgan maydon – 855,02 m^2.

3.2. Qurilish maydonining xususiyatlari.

Hisoblangan qishki tashqi havo harorati - - 19^0C.

Qor qoplami vazni - 0,50 kPa.

Shamol bosimi - 0,38 kPa.
Tuproq sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish maydonining seysmikligi - 8 ball.
Tuproq sharoitlarining cho'kuvchanlik turi - I (birinchi).
Seysmik xususiyatlari bo'yicha tuproq toifasi - II (ikkinchi).

9 qavatli turar-joy binosi.

3.3. Arxitektura va qurilish yechimlari.

Bino 9 (to'qqiz) qavatli ikki podyezdli Г-shaklda, ikkita blok o'qlar bo'yicha umumiy o'lchamlari 19,0x41,80m va 17,2x18,8m. Bino ikki podyezdli, yerto'lali, yerto'la balandligi h=3,0m, 1-qavat poldan shiftning pastki qismigacha h=4,0m, 2,3,4,5,6,7,8,9 - qavatgacha poldan shiftning pastki qismigacha balandligi h=3,0m dan. Ikki podyezdli turar-joy binosida 2-qavatdan 9-qavatgacha bo'lgan qavatlarda 40 ta 1 xonali xonadonlar, 40 ta 2 xonali xonadonlar, 24 ta 3 xonali xonadonlar mavjud.

Yerto'la qavatda avtoturargoh, lift yo'lafi va shaxtasi, nasos xonasi va elevator joylashgan.

1-qavatda zinapoya yo'lagi va lift shaxtasi, karidor, do'konlar, dam olish xonasi, xojatxona va xammom joylashtirilgan.

2-9 qavatlarda ko'tarilish yo'lagi, lift shaxtasi, karidor, mexmonxona, yotoqxona, bolalar xonasi, oshxona, xojatxona va xammom, balkon joylashtirilgan.

Xonadonlar soni: 1 xonali xonadonlar-40 ta, 2 xonali xonadonlar-40 ta, 3 xonali xonadonlar-24 ta. Jami xonadonlar soni 104 ta.

Binolarning javobgarlik sinfi - II.
Chidamlilik darajasi - II.
Yong'inga chidamlilik darajasi - II.
Funksional yong'in xavfi bo'yicha sinfi - F1.3.
Konstruktiv yong'in xavfi bo'yicha sinfi - C1.
Qurilish inshootlarining yong'in xavfi sinfi - K1.
Portlash va yong'in xavfi bo'yicha bino toifasi - G.
Ishonchlilik koeffitsienti - 0,95.

№ t/r	Ko'rsatkichlarning nomi	Birligi.	Maydon m²
1	Bino qavati		9
2	Qurilish maydoni	m²	1 133,20
3	Umumiy maydon	m²	9 834,17
4	Foydali maydon	m²	6 506,94
5	Yashash maydoni	m²	6 335,12
6	Qurilish hajmi	m³	40 001,96

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Poydevorlar - 900 mm qalinlikda armatura setkalari bilan kuchaytirilgan, B20 sinfli yaxlit monolit temir-beton plitali.

Erto'la devorlari - qalinligi 400 mm ФБС по ГОСТ 13579-75 markali yig'ma beton poydevor bloklari.

Devorlar – kompleks konstruksiyali, M50 sifati yuqori qorishma bilan M75 pishgan g'ishtdan teriladi, devorlar 700 mm devor kesishmalarida gorizontal armaturalar yordamida mustahkamlanadi, tashqi tomondan qalinligi 50mm bo'lgan basalt asosli mineral plita yordamida izolyatsiyalanadi.

Ichki devorlar - M50 sifati yuqori qorishma bilan Y=1000 kg/m^3 yengillashtirilgan M75 g'ishtdan teriladi, devor qalinligi 250mm.

Monolit ustunlar – B25 sinfli betondan yerto'ladan 3-qavatgacha 500x500mm o'lchamda, 4-qavatdan 9-qavatgacha 400x400mm o'lchamda monolit temir betondan.

Monolit rigellar - B25 sinfli betondan 400x400mm(h) o'lchamda monolit temir betondan.

Monolitli qattiqlik diafragmasi - B25 sinfli betondan monolit temir beton shaklida, yerto'lada qalinligi 400mm, yuqori qavatlarda qalinligi 200mm bajariladi.
Monolit yadrolar – B15 sinfli betondan monolit temir beton.
Ora devorlar – armog'ishtli, qalinligi b=120mm, devorlar 700 mm devor kesishmalarida gorizontal armaturalar yordamida mustahkamlanadi.
Bog'lamalar - B15 sinfli betondan monolit temir beton.
Qavatlar va qoplama plitasi – yig'ma temir-beton plita qoplamali.
Zinapoyalar va maydonlari - B20 sinfli monolit temir-betondan.
Izolyatsiya - qalinligi b = 120 mm, y = 140 kg/m^3 bo'lgan yuqori qattiqlikdagi basalt tolali mineral plitalar.
Tom – tekis, gidroizolyatsiyalangan 2-qatlamli tom qoplamali.(ПВХ мембрана, защитный слой – геотекстиль TERRAISOL.)
Pol - yerto'lada beton, 1-qavatda keramik plita, 2,3,4,5,6,7,8,9-qavatlarda tarket, keramik plita, zinapoya va maydonlari, karidorlar marmar plitali.
Oyna bloklari va yordamchi bloklar - individual ishlab chiqarilgan bir kamerali steklopaket metall-plastmassa.
Tashqi eshik bloklari yerto'lada - individual ishlab chiqarilgan kodli yaxlit metall eshiklar.
Tashqi eshik bloklari xonodonlarda - individual ishlab chiqarilgan qulfli yaxlit metall eshiklar.
Ichki eshik bloklari - individual ishlab chiqarilgan yaxlit metall eshiklar.
Ichki eshik bloklari - individual ishlab chiqarilgan MDF va alyumin profillardan.
Vitraj – mustahkam oynali.
Kirish qismi va pandus – beton.
To'shama maydon - 1500 mm kenglikdagi beton.
Tashqi pardozlash - binoning tashqi pardozlash bayonotiga ko'ra.
Ichki bezatish - ichki bezatish pardozlash bayonotiga ko'ra.
3.5. Yong'inga qarshi chora – tadbirlar.
Yong'inga chidamlilik darajasi - II.
Loyihada quyidagilar ko'zda tutilgan: - Barcha yog'och konstruksiyali elementlar antiseptiklar bilan singdirilgan va olovni to'xtatuvchi moddalar bilan ishlov berilgan. Qochish yo'llaridagi devorlar va shiftlar yonuvchan bo'lmagan materiallardandir.
*Buyurtmachi va loyiha tashkiloti ekspert tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishi orqali loyihaga o'zgartirishlar kiritishi lozim. Loyiha hujjatlarida yong'in xavfsizligiga qo'yilgan talablar buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz topshirilgan taqdirda xulosa haqiqiy emas deb hisoblanadi.
3.6. Energiya samaradorlik.
Energiya resurslarini tejash maqsadida loyihada quyidagi yechimlar qo'llanilgan:
- barcha tashqi to'siqlar (devorlar, qoplamalar, derazalar) energiya tejash shartlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan;
- bino energiya tejamkor issiqlik izolyasiyasi materiallar bilan ximoyalangan;
- yoritish tizimida energiya tejamkor lampalardan foydalanish ko'zda tutilgan;
- bino tomida quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr tarmoqlari.

Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida VRU1-200-315 UXL4 va VRU1-500A UXL4 olingan. Ximoya aparatlari uchun VA88-33. Magistral va tarkatuvchi tarmoklar uchun VVGng-0,66 markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmloqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida ximoyalangan. Xar-bir qavatda ЩЕ UXL4 qavat shitlari o'rnatilgan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar qo'llanilgan.

FES loyixasi:

Binoning tom qismiga umumiy quvvati 35.2kVt bo’lgan quyosh panellari urnatish ko’zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqga ulanadigan» quvvati 15 kVt bo’lgan 2dona Invertor o’rnatilgan.

Tashqi elektr tarmoqlari:

Loyixada ob’ekt xududida quvvati 630kVA bo’lgan 2GKTP o’rnatish ko’zda tutilgan. Tashqi elektr tarmoqlari AVVG-0,66 markali kabellarni yer ostiga yotqazib bajarilgan. Tashqi yoritish uchun Horoz LAGUNA markali quyosh panelli yoritgichlar o’rnatilgan.

4.2. Ichimlik va oqava suv tarmoqlari.

Sovuq suv ta’minoti kirish 108 mm elektr payvandlangan po'lat quvurlardan quvurdan loyihalangan. Magistral tarmoqlar, ko'targichlar va kvartira ichidagi quvurlar Ø 110,90,75,63,32,25,20 PP-R PN10 polipropilen quvurlaridan loyihalangan.

Quvurlardagi standart suv bosimiga erishish uchun har bir blokning texnik podvaliga 2 ta nasosli (1 ta ishchi, 1 ta zaxira) suv bosimini oshirish uchun nasos agregatlari 9.6 m3/soatgacha etkazib berish va avtomatik o'chirish uchun o'rnatiladi. Har bir xonadonda suv iste'molini hisobga olish uchun loyiha suv hisoblagichlarini o'rnatishni ko’zda tutilgan.

Issiq suv ta'minoti elektr suv isitgichlaridan olinadi. Issiq suv ta'minoti quvurlari PP-RCT PN20 quvurlaridan loyihalangan. Loyihada issiq suv ta’minoti tarmog‘iga ulangan holda tomga o‘rnatilgan quyoshli gorizontal suv isitgichlarini o‘rnatish ham ko‘zda tutilgan. Bu suv isitgichlari eng issiq quyoshli kunlarda issiq suvning muqobil manbai sifatida foydalaniladi.

Avtomatik yong'inni o'chirish tizimi GOST 10704-91 bo'yicha 25-32-40-57-159x4,5 elektr payvandlangan po'lat quvurlardan tayyorlangan.

Yong'in krani yordamida amalga oshiriladi. yong'inga qarshi kran - 16 mm, shlanglar uzunligi - 20 m yong'inga qarshi gidrantlar maxsus devor shkaflariga joylashtiriladi. Har bir yong'inga qarshi shkafda ikkita kukunli o't o'chirish moslamalari bilan jihozlangan. Ichki yong'inni o'chirish uchun suv iste'moli 2,6 l/sek. Quvurlardagi standart suv bosimiga erishish uchun har bir blokning texnik podvaliga 2 ta nasosli (1 ta ishchi, 1 ta zaxira) suv bosimini oshirish uchun nasos agregatlari o'rnatiladi.

Ichki maishiy kanalizatsiya tarmoqlari 50-100mm GOST 22689-2014 ga muvofiq plastik quvurlardan tayyorlangan.

Tashqi tarmoqlar:

Maishiy va ichimlik suvi ta'minoti manbasi mavjud suv minorasi bo'lib, suv ta'minoti tarmog'ida suv quduqlari o'rnatilgan, ularda suv o'chirish klapanlari o'rnatilgan polietilen quvurlar PE80 SDR 17,6/13,6 Dn=160 mm. Tashqi yong'inni o'chirish uchun manba suv ta'minoti quduqlariga o'rnatilgan yong'in gidrantlari hisoblanadi. Tashqi yong'inni o'chirish uchun suv iste'moli 15 l/s ni tashkil qiladi.

Binolardan oqava suvlarni kanalizatsiya quduqlariga, keyinchalik mavjud Shahar kanalizatsiya tizimiga yunaltirilgan. Kanalizatsiya tarmoqlari tortishish oqimi bo'lib, SDR 17,6 Dn160 polietilen quvurlardan tayyorlangan. mm GOST 18599-2001 bo'yicha.

4.3. Isitish va shamollatish.

Issiqlik manbai MTU suvli isitish qozoni. Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 524.26kVt isitish tizimi uchun. Isitish tizimi ikki quvurli boshi berk gorizontal va vertikal bo‘lib pol konstruksiyasi ichiga yotqizilgan. Radiatorli isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPR PN25 turdagi polimer va GOST 10704-91 turdagi po‘lat quvurlardan qilingan. Isitish jihozlari bimetal radiator. Bir dona radiator qovurg‘asining quvvati 166Vt. Bino honalarida eshik va derazalar orqali tabiy shamollatish tizimi, osevoy ventilyatorlar orqali mexanik shamollatish ko‘zda tutilgan. Binoda tutunga qarshi shamollatish tizimi markazdan qochma ventilyatorlar orqali loyihalangan.

4.4. Ichimlik va oqava suv tarmoqlari, binoning isitish va shamollatish tizimlari, elektr tarmoqlari, gaz tarmoqlari texnik shartlarga muvofiq jihozlanishi lozim. (Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘iga binoan).

4.5. *Qurilish hududiga aloqador barcha muhandislik tarmoqlari hususan, gaz, suv va oqova suv, elektr tarmoqlari ximoya zonalari saqlanishi, qurilish ishlari davomida tegishli tashkilot vakillari ishtiroki ta’minlanishi hamda kelishilishi buyurtmachi tashkilot zimmasidadir.*

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi loyiha-smeta xujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 04.10.2024 yildagi loyiha smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha 152027520-sonli xulosasi.

5.2. Jizzax viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 26.11.2024 yildagi 429-E-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **30 056 076 872** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

2 127 950 478 so'mga kamaytirilib, **27 928 126 394** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **24 097 109 313** so'm

Asbob-uskunalar: **759 177 707** so'm

QQS: **2 992 299 256** so'm

6.1. Loyiha - smeta hujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Obyektning qurilish narxi **“**Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko‘ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

6.3. Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan birga **30 056 076,872** ming so‘mga taqdim etilgan. Smeta hujjatlarini o‘rganish jarayonida ba’zi qurilish materiallari narxi, mashina mexanizm narxi, jixozlar narxi o’zgartirilishi, ish turlarining amaldagi qurilish me’yorlari va qoidalari asosida hisoblanishi natijasida – **2 127 950,478** ming so‘mga kamaydi va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va QQS 12 % bilan xisoblaganda umumiy miqdorda **27 928 126,394** ming so‘mga tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

– qurilish montaj ishlari (QMI) – **24 097 109,313** ming so‘mni;

– jixoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikda – **759 177,707** ming so’mni;

– qurilish vaqtida qurilish obektini sug‘urtalashga sarflangan xarajatlar (0,32%) – **79 540,118** ming so’mni;

– qo‘shimcha qiymat solig‘i 12% – **2 992 299,256** ming so‘mni tashkil etgan.

– umumlashtirilagan smeta hisobida ishchi-quruvchilar miqdori **182 996,4958** odam/soat.

Ishchi quruvchilarning o‘rtacha bir soatlik ish xaqi Statistika agentligining 2024–yil III chorak (kvartal) katalog asosida ijtimoiy sug‘urtaga ajratma 12 % bilan 27 468,02 so‘m qabul qilingan. (Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo‘yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ish haqi bo‘yicha xarajatlarni aniqlashda, qabul qilingan 1 kishi/soat 27 468,02 so‘m (ijtimoiy sug‘urtaga ajratma 12% bilan) va pudratchining “boshqa xarajatlari” bo‘yicha xarajatlarni aniqlashda qabul qilingan 18,58% ko‘rsatkich tavsiyaviydir, pudratchi bilan bajarilgan ishlar xarajatlarini hisob-kitob qilishda ushbu ko‘rsatkichlar ShNQ4.01.16-09 bilan tartibga solingan holda olib borilishi tavsiya etiladi.

Ta’kidlash joizki:

a). Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga

oshirilishi va asoslovchi xujjatlarga tayanilishi lozim amda o‘zaro hisob-kitob qilishda ShNQ 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda eng maqbul narxlar qabul qilinishi nazorati buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.

b). Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi:

- Jixoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikdagi mablag‘ning aniq sarfini;
- pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;
- “Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o‘z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini o’rganib chiqib xulosa qabul qilishi lozim;
- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o‘tgan 12 oydagi o‘rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

v). Buyurtmachi qurilish ishlarini boshlashdan oldin loyiha bilan to'liq tanishib chiqishi hamda barcha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishgan holda qurilish ishlarini boshlashi lozim.

g). Qurilish, montaj ishlarini bajarilishida qaytarilgan materiallar (vozvrat materialov) qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan aniqlanadi.

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish ob’ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to‘g‘risida vaqtinchalik qoidalar”ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4 -bandi).

6.6. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25- moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579 - sonli qarorining 1 - ilova 3 - bob 29 - bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.7. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatilaring xaqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi xamda loyixa tashkiloti javobgardir.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.08.2022 yildagi “Chiqindilar bilan bog’liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risidagi” PF-189-sonli Farmoni 6-bandi ijrosi, 23.11.2023 yildagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risidagi” PF-199-sonli Farmoni 15-bandi ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirining 12.06.2023 yildagi 153-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan ShNQ 2.07.01-03* ning 19-ilovasi ijrolarining ta’minlanishi buyurtmachi, pudratchi, loyiha tashkiloti va binoni qabul qilish komissiyasisi zimmasidadir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalari va takliflarini inobatga olgan holda **"1-qavati savdo va maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchasi yuqori qavatlari ko`p qavatli turar joy binosi"**

loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Tajibayev Sharof Abdurashidovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Maxmudov Bobir Inatulla O‘g‘li, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Turayev Shoxrux Ilxomovich, Abduramanov Nazim Xxx, Ubaydullayev Nizomjon Ne’matulla O‘g‘li, Hasanov Javohir Ortiq O‘g‘li, Amonov Javoxir Muxammadjon O‘g‘li